

# **QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI XO‘JALIK TOIFALARI BO‘YICHA YETISHTIRISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK JIHALARI**

**Nurmatov N.E.**

**Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Geografiya kafedrası o‘qituvchisi**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlarining turli xo‘jalik toifalari bo‘yicha yetishtirilishi iqtisodiy-geografik jihatdan tahlil qilinadi. Hududning tabiiy-iqlim sharoiti, iqtisodiy imkoniyatlari va chorvachilik tarmoqlarining rivojlanish omillari o‘rganilgan. Tadqiqotda fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, ularning hududiy taqsimoti hamda viloyat iqtisodiyotiga ta‘siri o‘rganilgan. Shuningdek, chorvachilik mahsulotlarining yetishtirish hajmiga ta‘sir etuvchi ekologik va demografik omillar ham tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Qashqadaryo viloyati, chorvachilik, xo‘jalik toifalari, iqtisodiy geografiya, mahsulot yetishtirish, hududiy taqsimot, ekologik omillar, demografik omillar.*

## **ECONOMIC GEOGRAPHICAL ASPECTS OF LIVESTOCK PRODUCTION BY ECONOMIC CATEGORIES IN KASHKADARYO REGION**

**Nurmatov N.E.**

**Shakhrisabz State Pedagogical Institute  
Teacher of the Department of Geography**

***Annotation.** This article analyzes the economic and geographical aspects of the production of livestock products by various economic categories in the Kashkadarya region. The natural and climatic conditions of the region, economic potential and development factors of the livestock sector are studied. The study examines the share of farmers, dehkans and household farms and organizations engaged in agricultural activities in the production of livestock products, their territorial distribution and impact on the regional economy. Also, environmental and demographic factors affecting the volume of livestock production are analyzed.*

***Keywords:** Kashkadarya region, livestock farming, economic categories, economic geography, production, territorial distribution, ecological factors, demographic factors.*

**Kirish.** Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ta‘minot jahon miqyosida iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi, oziq-ovqat xavfsizligi masalalari va ekologik omillar chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish zaruratini oshirmoqda. Dunyoning yetakchi davlatlari ushbu sohada innovatsion texnologiyalarni joriy etib, mahsulot sifatini oshirish va eksport hajmini kengaytirishga harakat qilmoqda [11]. Ayniqsa, barqaror chorvachilik tizimlarini yaratish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda ekologik toza mahsulotlar yetishtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda agrar soha rivojlangan bo'lib, chorvachilik tarmog'i iqtisodiyotning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi doimiy ravishda oshib borayotgani, hududiy maxsuslashuv va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining takomillashib borayotgani kuzatilmoqda. Xususiy va yirik agroklastlar faoliyati natijasida go'sht, sut, jun va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortib, ichki talabni qondirish bilan birga, eksport salohiyati ham kengaymoqda. Shu bilan birga, chorvachilik mahsulotlarining sifatini oshirish, yem-xashak resurslarini samarali taqsimlash va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar mavjud.

Qashqadaryo viloyati chorvachilikning rivojlanishi uchun qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga ega bo'lib, mazkur soha viloyat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Viloyatda yirik va xususiy xo'jaliklar tomonidan go'sht, sut, jun va boshqa chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi oshib bormoqda. Biroq, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda mintaqaviy tafovutlar, yaylovlardan samarali foydalanish masalalari hamda ekologik muammolar mavjud. Shu sababli, Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni iqtisodiy geografik jihatdan o'rganish, muammolarni aniqlash va istiqbolli yo'nalishlarni belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti turli xo'jalik toifalariga asoslangan bo'lib, har birining o'ziga xos funksiyasi va ahamiyati mavjud. *Fermer xo'jaliklari* qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yirik miqyosda yetishtiruvchi tadbirkorlik subyektlari bo'lib, ularga yer ijara asosida ajratiladi. Bu xo'jaliklar asosan paxta, g'alla, bog'dorchilik va chorvachilik yo'nalishlarida faoliyat yuritadi. Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yirik ulushini yetishtirib, ichki bozorni ta'minlash va eksport hajmini oshirishda muhim rol o'ynaydi [1, 2, 7].

*Dehqon xo'jaliklari* esa oilaviy mehnatga asoslangan bo'lib, dehqonlarga umrbod egalik qilish yoki ijara huquqi asosida yer beriladi. Ushbu xo'jaliklar

asosan kichik yer maydonlarida faoliyat yuritadi va aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. *Tomorqa xo'jaliklari* dehqon xo'jaliklariga o'xshash bo'lib, ular shaxsiy yer maydonlarida mahsulot yetishtirish bilan shug'ullanadi. Tomorqa xo'jaliklari ko'pincha oilaviy ehtiyojlar uchun ishlab chiqarish olib boradi, ammo ortiqcha mahsulot bo'lsa, uni bozorga chiqarish ham mumkin.

*Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* esa yirik korxonalar bo'lib, ular yer va ishlab chiqarish mulklariga egalik qiladi. Ushbu tashkilotlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat asosida yetishtirish va qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Ularning roli hozircha nisbatan kichik bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi texnologiyalarini modernizatsiya qilish va samaradorlikni oshirishda muhim o'rin tutadi.

Umuman olganda, har bir xo'jalik toifasining o'z o'rni va ahamiyati bor. Fermer xo'jaliklari yirik ishlab chiqarish bilan shug'ullansa, dehqon va tomorqa xo'jaliklari aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Yirik qishloq xo'jaligi tashkilotlarining rivojlanishi esa sektorning sanoatlashuviga va samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli, har bir xo'jalik toifasini qo'llab-quvvatlash va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks strategiyalar ishlab chiqish zarur [8, 10].

Qashqadaryo viloyatida 2024-yilda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 26 525,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 105,1% o'sish kuzatildi. Bu natija viloyatda chorvachilik tarmog'ining barqaror rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 62,1% ni tashkil qilgani bu tarmoqning agrar sektordagi ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini anglatadi.

So'nggi yillarda chorvachilikni rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan tizimli yordamlar ko'rsatilmoqda, jumladan, chorvadorlarga subsidiya va kredit ajratish, yirik chorvachilik komplekslarini tashkil etish va yaylovlardan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, chorva

mollari bosh sonining oshishi kuzatilmoqda, bu esa ichki iste'mol bozorini chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu holat mahalliy go'sht, sut, tuxum va boshqa mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmini oshirishga hamda narx barqarorligini saqlashga imkon yaratmoqda [3, 5, 9].

Qashqadaryo viloyatida 2024-yilda yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining umumiy hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lib, mahsulotlarning asosiy qismini dehqon va tomorqa xo'jaliklari yetishtirgan. Jumladan, go'sht ishlab chiqarishda bu toifa xo'jaliklarning ulushi 93,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, fermer xo'jaliklari 3,8 %, qishloq xo'jaligi tashkilotlari esa 2,3 % ulushga ega (jadval). Bu ko'rsatkichlar dehqon xo'jaliklarining go'sht yetishtirishdagi ustun mavqeini hamda ularning asosiy ta'minotchi ekanligini tasdiqlaydi.

Sut ishlab chiqarishda ham dehqon va tomorqa xo'jaliklari yetakchilik qilmoqda. 2024-yilda viloyatda umumiy 1 380,1 ming tonna sut yetishtirilgan bo'lib, uning 95,4 % i aynan ushbu xo'jaliklarga to'g'ri keladi. Fermer xo'jaliklari ulushi bor-yo'g'i 3,7 % ni tashkil qilsa, qishloq xo'jaligi tashkilotlari faqatgina 0,9 % ulushga ega (jadvalga qarang). Bu esa shaxsiy tomorqalarning sut mahsulotlari yetishtirishdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tuxum ishlab chiqarish bo'yicha ham dehqon va tomorqa xo'jaliklari yetakchi bo'lib, 2024-yilda 360,5 mln dona tuxum yetishtirgan. Bu umumiy ishlab chiqarishning 63,9 % ini tashkil qiladi. Shu bilan birga, fermer xo'jaliklari 5,9 %, qishloq xo'jaligi tashkilotlari esa 30,2 % ulushga ega (jadvalga qarang). Ushbu ko'rsatkichlar tuxum ishlab chiqarishda yirik qishloq xo'jaligi tashkilotlari ham muhim rol o'ynayotganini ko'rsatmoqda.

#### **Qashqadaryo viloyatida xo'jaliklar toifasida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari (2024-yil)**

| <b>Mahsulot turi</b>                     | <b>Miqdori</b> | <b>ulushi</b> |
|--|----------------|---------------|
| <b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b> | <b>345,9</b>   | <b>100</b>    |
| <i>shu jumladan:</i>                     |                |               |
| Fermer xo'jaliklari                      | 13,0           | 3,8           |

|   |               |            |
|---|---------------|------------|
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari                                      | 325,0         | 93,9       |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar        | 7,9           | 2,3        |
| <b>Sut, ming tonna</b>  | <b>1380,1</b> | <b>100</b> |
| <i>shu jumladan:</i>  |               |            |
| Fermer xo'jaliklari   | 51,1          | 3,7        |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari                                      | 1316,1        | 95,4       |
| <b>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</b> | 12,9          | 0,9        |
| <b>Tuxum, mln dona</b>  | <b>564,3</b>  | <b>100</b> |
| <i>shu jumladan:</i>  |               |            |
| Fermer xo'jaliklari   | 33,3          | 5,9        |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari                                      | 360,5         | 63,9       |
| <b>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</b> | 170,5         | 30,2       |
| <b>Baliq, tonna</b>   | <b>4356,9</b> | <b>100</b> |
| <i>shu jumladan:</i>  |               |            |
| Fermer xo'jaliklari   | 1838,7        | 42,2       |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari                                      | 230,9         | 5,3        |
| <b>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</b> | 2287,3        | 52,5       |

*Jadval Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.*

Baliq yetishtirish tahlil qilinganda, qishloq xo'jaligi tashkilotlarining yetakchiligi seziladi. 2024-yilda viloyatda 4 356,9 tonna baliq yetishtirilgan bo'lib, uning 52,5 % i aynan qishloq xo'jaligi tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi. Fermer xo'jaliklari 42,2 % ulush bilan ikkinchi o'rinda turadi, dehqon va tomorqa xo'jaliklarining hissasi esa atigi 5,3 % ni tashkil qilgan (jadvalga qarang). Ushbu tahlil baliqchilik sohasida sanoat usulida ishlab chiqarish yetakchilik qilayotganini ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyatida 2024-yilda yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida dehqon va tomorqa xo'jaliklari yetakchilik qilmoqda. Go'sht ishlab chiqarishning 93,9 %, sut ishlab chiqarishning 95,4 %, tuxum ishlab chiqarishning esa 63,9 % i ushbu xo'jaliklarga to'g'ri kelmoqda. Bu esa aholining xonadonlarida chorvachilik va parrandachilik keng rivojlanganini, dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ichki bozorni ta'minlashda asosiy manba ekanini ko'rsatadi.

Fermer xo'jaliklari, asosan, baliqchilik (42,2 %), tuxum (5,9 %) va go'sht (3,8 %) ishlab chiqarishda o'z hissasiga ega. Bu ko'rsatkichlar fermer

xo'jaliklarining chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishdagi ulushini oshirish uchun tizimli chora-tadbirlar zarurligini anglatadi. Fermer xo'jaliklarining baliqchilikdagi nisbatan yuqori ulushi esa bu sohaning yirik fermer xo'jaliklari tomonidan rivojlantirilayotganidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar esa baliq yetishtirishda yetakchilik qilmoqda (52,5 %). Bu sohaga yirik agroklastlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan baliqchilik xo'jaliklari jalb qilingan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu tashkilotlarning go'sht va sut ishlab chiqarishdagi ulushi nisbatan kam (mos ravishda 2,3 % va 0,9 %), bu esa ularning ushbu sohalarda hali yetarlicha rivojlanmaganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, viloyatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo'jaliklari asosiy rolni o'ynaydi. Fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi tashkilotlarining ulushi ayrim tarmoqlarda oshib borayotgan bo'lsa-da, hali to'liq shakllangan yirik ishlab chiqarish tizimi mavjud emas. Kelajakda chorvachilikni kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozor talabiga mos ravishda yetishtirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha iqtisodiy geografik jihatdan tahlil qilinganda, hududning tabiiy resurslari, aholining mehnat resurslari va transport-logistika infratuzilmasi yetakchi omillar sifatida ko'rinadi. Viloyatning tog'oldi va tekislik hududlarida yaylovlardan samarali foydalanish va chorvachilik fermalarini diversifikatsiya qilish lozim. Xususan, yirik agroklastlar va qishloq xo'jaligi kooperativlarini shakllantirish orqali sut va go'sht mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish, ishlab chiqarish zanjirini uzluksiz rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish muhim [4, 6]. Bundan tashqari, viloyatda chorvachilik uchun zarur bo'lgan yem-xashak bazasini kengaytirish, yangi agrotexnologiyalarni joriy etish va ilmiy tadqiqotlar asosida mahsuldorlikni oshirish masalalariga e'tibor qaratish lozim.

Bundan tashqari, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining yuqori ulushini inobatga olgan holda, ularga innovatsion chorvachilik texnologiyalarini joriy etish, veterinariya xizmati va yem ta‘minotini yaxshilash orqali mahsuldorlikni oshirish tavsiya etiladi. Ayniqsa, baliqchilik sohasida suv resurslaridan samarali foydalanish va sun‘iy havzalarni ko‘paytirish orqali ishlab chiqarishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatda ichki transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, sovutkichli logistika tarmoqlarini rivojlantirish hamda chorvachilik mahsulotlarini sanoat miqyosida qayta ishlash klasterlarini tashkil etish hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga va aholi bandligining oshishiga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy geografik jihatlari tahlil qilinishi shuni ko‘rsatmoqdaki, hududning tabiiy-iqlim sharoiti, yer va suv resurslari, aholi zichligi hamda xo‘jalik yuritish shakllari chorvachilik sohasining rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Viloyatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy og‘irligi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelib, go‘sht, sut va tuxum ishlab chiqarishda ularning ulushi mutlaq ustunlikka ega. Ushbu holat aholining chorvachilik bilan shug‘ullanishga qiziqishi yuqori ekanligini ko‘rsatadi, biroq ishlab chiqarishning parchalanganligi, mahsulot yetishtirishning sanoat miqyosida rivojlanmaganligi va qayta ishlash tizimining yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani bu sohaga jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi past ekani, ularning resurs bazasini kengaytirish, texnologik modernizatsiya va kooperatsiya jarayonlarini jadallashtirish zarurligini anglatadi.

Chorvachilikning viloyat iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulot ishlab chiqarishni yirik agroklastlar asosida tashkil etish va logistika tizimini takomillashtirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining ulushini oshirish uchun davlat tomonidan subsidiya va imtiyozli

kreditlarni ko‘paytirish, yem bazasini mustahkamlash, naslchilik va veterinariya xizmatlarini yaxshilash lozim. Bundan tashqari, viloyatning transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, chorvachilik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash zavodlarini qurish orqali sohaning eksport salohiyatini oshirish mumkin. Baliqchilik sohasida esa fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining ulushi yuqori bo‘lib, bu tarmoqni yanada rivojlantirish uchun sun‘iy havzalarni ko‘paytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va mahalliy baliqchilik klasterlarini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Umuman olganda, viloyatda chorvachilik mahsulotlarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish va sohani innovatsion yo‘nalishda rivojlantirish Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti va qishloq xo‘jaligining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт. – Т: Камалак, 2013. – 184 б.
2. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги географияси (монография). – Қарши: Университет, 2019. -245 б.
3. Nurmatov Nurbek. Economic and geographical factors of regional organization of agriculture and innovative development // International multidisciplinary journal for Research & development. - India, eISSN 2394-6334 Volume 10, issue 12 (2023) P.439-442
4. Nurmatov N.E. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog‘i rivojlanishiga ta‘sirining asosiy xususiyatlari // "Экономика и социум" - Россия, № 2(117) 1 (февраль, 2024). С. 510- 517
5. Nurmatov Nurbek Ermat o‘g‘li. Chorvachilikni rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi tabiiy sharoit va resurs omillarining asosiy xususiyatlari // “O‘zbekiston zamini” 2024 yil 4 – son. B. 69-71.
6. Nurmatov N.E. Economic and geographical factors affecting livestock development in ensuring food security // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Belgiya. December 2024. P. 43-46
7. Faizullaev M.A. Theoretical and methodological aspects of the economic geographical study of agriculture and the use of land and water resources // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. – P. 39-42.
8. Faizullaev M.A. Main characteristics of the formation of a geographic conveyor in agricultural development // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Vol. 4 No. 2 (2023) – P. 89-92.
9. Faizullaev Maksud Abdullaevich. Characteristics of agriculture in Uzbekistan in the years of independence // European science review. 2015. – P. 67-69.
10. Fayzullayev M.A. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi geografiyasi. Monografiya. T.: Kitob bilim yog‘dusi. 2024. – 258 bet.
11. <https://www.fao.org/agrifood-economics/publications/detail/en/c/1132943/>